



## GAYMARIT KASALLIGINI KELIB CHIQISHI VA XALQ TABOBATI USULLARIDAN FOYDALANIB DAVOLASHNING AXAMIYATI ПРОИСХОЖДЕНИЕ БОЛЕЗНИ ГИМАРИТА И ЗНАЧЕНИЕ ЛЕЧЕНИЯ С ПРИМЕНЕНИЕМ МЕТОДОВ НАРОДНОЙ МЕДИЦИНЫ THE ORIGIN OF HYMARIT DISEASE AND THE IMPORTANCE OF TREATMENT USING FOLK MEDICINE TECHNIQUES

*Ibrohimjon Rahmonovich Asqarov,*

*Andijon davlat universiteti. Kimyo fanlari doktori, professor,*

*Isaqjonova Mohigul Baxromjon qizi*

*Andijon davlat universiteti I-bosqich magistranti*

*Isaqjonova Mohigul Baxromjon qizi*

**Annotasiya** Maqolada Gaymarit kasalligini kelib chiqishi, turlari xamda zamonaviy tibbiy va xalq tabobati usullaridan foydalanishning axamiyatlari keng yoritib berildi. Tabiiy ta'sir qiluvchi o'simliklarnig o'simlikning o'ziga xosligi hamda o'simlik xom-ashyolaridan samarali foydalanish yo'llari yoritib berilgan.

**Аннотация** В статье широко разъяснено происхождение и виды болезни Геймарита, а также важность использования современных методов медицинской и народной медицины. Освещены характеристики растений с природными эффектами и пути эффективного использования растительного сырья.

**Annotation** In the article, the origin and types of Gaymarit disease, as well as the importance of using modern medical and folk medicine methods were widely explained. The characteristics of plants with natural effects and ways of effective use of plant raw materials are highlighted.

**Kalit so'zlar:** O'RVI, faringit, infektsion, vazomotor, ekssudativ, produktiv, nekrotik, atrofik

**Ключевые слова:** ОРВИ, фарингит, инфекционный, вазомоторный, экссудативный, продуктивный, некротический, атрофический

**Keywords:** SARS, pharyngitis, infectious, vasomotor, exudative, productive, necrotic, atrophic

*Gaymorit — burun yon (yuqori jag' bo'shlig'i) sinus shilliq qavatining yallig'lanishi bilan ifodalanadigan kasallik, sinusitning bir turi sanaladi va eng keng tarqalgan lor kasallik*



hisoblanadi. Kasallik kechish og'irligiga qarab, o'tkir yoki su-runkali bo'lishi mumkin. Kasallik erta tashxislansa va jiddiy shakllarga o'tmagan bo'lsa, ko'p hollarda gaymoritni uyda davolash usuli ham samarali hisoblanadi. Kasallik yuqori jag' yoxud burun yon sinuslari havoli bo'shliqlar bo'lib, ularning vazifasi atmosfera va kalla ichi bosimini tenglashtirish, rezonator funktsiyalarni bajarish va havoni tozalash, namlash sanaladi. Burun yon bo'shliqlarining yo'llari burun bo'shlig'iga chiqadi, ichida esa suyakka birikib turgan shilliq qavat bilan qoplangan bo'ladi. O'sha shilliq qavatning yallig'lanishi gaymorit kasalligi sanaladi. Ko'pincha gaymorit kasalligining asosiy sababi yuqori nafas yo'llari infektsiyasi yoki allergiya bo'ladi, shu sababli kuz-qish mavsumida bu kasallik rivojlanishi avj oladi.

Bundan tashqari, ba'zi bir kasallikkarni davolamaslik, zararli tashqi omillar ham gaymoritni keltirib chiqarishi mumkin, jumladan: Yuqori jag' tishlari kariesi, immun tizimining zaiflashuvi, burun yon sinuslarini o'rab turuvchi shilliq qavat jarohatlari havosi haddan tashqari quruq yoki yelvizak bo'lgan xonada uzoq vaqt bo'lisch, og'iz bo'shlig'i gigienasiga rioya qilmaslik, shilliq qavatning zamburug'li kasallikkari, bekteriyalar (stafillokokklar), sil kasalligi, zararli ishlab chiqarishda ishslash, burun-halqum rivojlanishi anomaliyalari va uning shikastlanishlari, o'smalar mavjudligi, burun bitishiga qarshi tomchilarni tez-tez ishlatish, rinit bilan kechuvchi allergik reaktsiyalar, burun to'sig'inining deformatsiyasi (qiyshayishi) va natijada sinusda havo aylanishining buzilishi, surunkali infektsiyalar — faringit, tonzillit sabab bo'lishi mumkun.

Gaymoritning dastlabki belgilari tana haroratining ko'tarilishi, isitma, kuchsizlik, tumov va burun bitishi, yuz sohasida og'riqlar bilan namoyon bo'ladi. Og'riq peshona, tishlar va chakkaga tarqalish xususiyatiga ega. Bundan tashqari, qovoqlarning qizarishi va shishi qayd qilinishi mumkin. Bolalarda gaymorit bolganda ularning injiqlik qilishi va charchaganligi ham seziladi. Shu bilan birga, gaymorit qanday rivojlanishiga qarab, kasallik alomatlari ham farqlanishi mumkin.

O'tkir gaymorit O'RFI belgilari fonida rivojlanadi va quyidagi alomatlar bilan ifodalanadi: isitma, bo'g'imlardagi og'riqlar, yuqori jag' va burun sohasidagi og'riq, kuchli tumov, bosh og'rig'i, ko'z sohasidagi og'riqlar, surunkali gaymorit esa asta-sekin rivojlanadi, uning belgilari: Surunkasiga kechayotgan rinit, ko'z sohasidagi og'riqlar,



konyuktivit, ko'pincha bosh og'rig'I bilan namoyon bo'ladi. Gaymorit turi ko'p bo'lgan kasallik xisoblanib. Bugungi kunda shifokorlar kasallikning quyidagi turlarini ajratishadi:

*Kataral gaymorit.* Kasallik shilliq qavatning yallig'lanishi, burun bo'shlig'inining shishishi va qizarishi bilan tavsiflanadi. Kataral gaymorit bolalar orasida ko'proq tarqalgan. Sabablari virusli infektsiya, allergik tumov va burun shilliq qavatining jarohatlari hisoblanadi. Xarakterli alomatlari ishtaha yo'qolishi, isitma va umumiy intoksikatsiya belgilari sanaladi.

*Ikki tomonlama gaymorit.* Yuqori jag' sinuslarining yallig'lanishi asoratlanishida ko'proq uchraydi. Uning yorqin belgilaridan shish, burundan ko'p ajralma kelishi, burun bitishi, tana haroratining ko'tarilishi, umumiy intoksikatsiya, shuningdek ko'zlearning yoshlanishi va apatik holatlarni ajratib ko'rsatish mumkin. Kasallikning ushbu turi rivojlanishiga infektsion va yallig'lanish jarayonlari sabab bo'lishi mumkin. Ikki tomonlama gaymoritga shubha qilganda otolaringolog kompleks davolash — dori vositalari va fizioterapiya muolajalarini buyuradi.

*Polipoz gaymorit.* Kasallikning bu turi dorilar bilan davolanmaydi. Qoida tariqasida, polipoz gaymorit rivojlanishi allergiyalar, burun komponentlarining anatomik tuzilishi buzilishlari va yallig'lanishlari bilan bog'liq. Asosiy alomatlari og'izdan nafas olish va burundan shilliq ko'rinishida tez-tez ajralmalar kelishi hisoblanadi. Bundan tashqari, ta'm bilish qobiliyatining buzilishi va ishtahaning pasayishi kuzatiladi. Davolash jarroh tomonidan amalga oshiriladi. Agar poliplar o'lchami kichik bo'lsa, medikamentoz davo usullari qo'llanishi ham mumkin, ammo bunda doimo ham natija sezilmaydi.

*Allergik gaymorit.* Buning sababi burun sinuslarining ta'sirlanishi hisoblanadi. Uning alomatlari ko'z yoshlanishi, shishganlik, tana harorati ko'tarilishi, bosh og'riqlari va umumiy holsizlikdir. Kasallik asosan kuz va bahor oylarida kuzatiladi. Allergik gaymoritni davolash uchun dastavval allergenni aniqlash va u bilan bemorning aloqa qilishini cheklash kerak. Davolovchi shifokor to'liq tekshiruv o'tkazish natijasida antiallergen terapiya, so'ng umumiy qo'llab-quvvatlovchi preparatlar buyuradi.

*Yiringli gaymorit.* Ko'pincha yuqori nafas yo'llarining davolanmagan yoki o'tkazib yuborilgan infektsion kasalliklari oqibati hisoblanadi. Ushbu turdag'i gaymorit sababchilari patogen mikroorganizmlar va ularning hayotiy faoliyati mahsulotlari sanaladi. Agar



kasallikning yiringli turiga yetarli e'tibor qaratilmasa va uni davolash ortga surilsa, u suyaklar va yaqin atrofdagi to'qima va a'zolarga tarqalishi mumkin.

*Odontogen gaymorit.* Qo'zg'atuvchining kasallangan yuqori jag' tishlari va og'iz bo'shlig'idan burun yon bo'shliqlariga o'tishi oqibatida rivojlanadi. Qo'zg'atuvchilar ichak tayoqchasi, stafilokokklar, streptokokklar va ularning kombinatsiyasi sanaladi. Odontogen gaymoritning perforativ va noperforativ shakllari ham farqlanadi.

Birinchisi yuqori jag' tishini sug'urish natijasida og'iz bo'shlig'i va yuqori jag' sinuslari orasida fissura hosil bo'lishida kuzatiladi. Aynan shu fissura orqali patogenlar sinuslarga yetib boradi. Bundan tashqari, gaymorit infektsion, vazomo tor, ekssudativ, produktiv, nekrotik va atrofik bo'lishi mumkin. Infektsion gaymorit virusli, bakterial yoki zamburug'li tabiatga ega bo'ladi. Burun yon bo'shlig'ining vazomotor yallig'lanishi qon tomirlari faoliyatining buzilishi bilan bog'liq. Ekssudativ turi sinuslarda yiring mavjudligiga ishora qiladi. Produktiv gaymoritda sinusning o'zida turli xil o'smalar shakllanadi, masalan polipoz o'smalar. Sinuslarda nekroz qayd qilinsa, bu holda kasallikning nekrotik turi haqida gapiriladi. Sinus va burun bo'shlig'i to'qimalarining oziqlanishi buzilganda, atrofik gaymorit tashxislanadi.

Gaymoritni davolash quyidagilarni o'z ichiga oladi: kasallik belgilarini bartaraf etish; immun funksiyalarini yaxshilash; kasallik qo'zg'atuvchisini yo'q qilish. Burundan yiringli suyuqlik chiqmagan hollarda mahalliy va umumiy preparatlarni qo'llash bilan konservativ davolash amalga oshiriladi.

Asoratlar ehtimolini istisno qilish uchun mazkur dori-darmonlardan foydalilanildi: desensibilizatsiya qiluvchi dorilar, antibiotiklar, og`riq qoldiruvchi vositalar, vitaminlar bilan davolanadi. Agar gaymoritni davolashda kechikishlar bo'lsa, bu kasallik meningit va ensefalit kabi jiddiy kasalliklarga olib kelishi, ko'z va quloqning yallig'lanishli kasalliklarini chaqirishi mumkin. Kasallik rivojlanishda davom etsa, bemor buyrak, yurak, ko'z, bo'g'imlar va hatto bosh miya bilan bog'liq muoammolarga duch kelishi mumkin. O'tkir sinusitni rentgenografiya yordamida tashxislash juda oson. Surunkali shaklini aniqlashda shifokor malakasi, kompyuter tomografiysi yordam beradi. Aniq tashxis qo'yilsa, boshqa kasalliklarni istisno qilish mumkin. Ko'pincha antibiotiklar va antigistaminlar buyuriladi. Ammo burun tomchilarini haddan ziyod qo'llash foyda o'miga



ziyon keltirishi mumkin, chunki ular burun shilliq qavatini quritib yuboradi va kasallikni yanada avj olishiga zamin yaratib beradi. Antibiotiklar sinuslarni chayish yo'li bilan mahalliy qo'llanilishi, bundan tashqari tabletkalar yoki in'yecksiyalar shaklida belgilanishi mumkin. Qay turdag'i antibiotik qo'llanilishi faqat shifokor tomonidan tanlanadi. Punktsion usul Bunday holda sinusga bosim ositda antiseptik eritma yuboriladi va yiringli ekssudat yuvib chiqariladi. Bu usul shifokor nazorati ostida olib boriladi. Lekin jarayon og'riqli va yoqimsiz bo'lganligi sababli, hozirgi vaqtida faqat og'ir hollarda qo'llaniladi.

*Gaymoritni xalq tabobati yordamida davolash* Statistika gaymoritni xalq tabobati yordamida davolashda samaradorlik foizi yuqori ekanligini ko'rsatadi. Mamlakatimizda o'suvchi keng tarqalgan o'simliklar ular tarjibida tabbiy uchratish mumkun bo'lgan vitaminlar, mikroelementlar xamda tabiiy ta'sir etuvchi flavanoidlar kasallikni davolashda va oldini olishda samarali ta'sir ko'rsatadi. Ko'p tomchilar, damlamalar va malhamlar retseptlari mavjud va ular gaymorit davosi hisoblanadi. Shu bilan birga, ular asosiy terapiya usuli sifatida emas va faqatgina kompleks terapiya o'rniда qo'llanilishi mumkin. Bemorda allergiya chaqirishi mumkin bo'lgan mahsulotlardan foydalanish tavsiya etilmaydi.

Propolis, Lavr yaproqlari xam bunga misol bo'lishi mumkun, shu bilan birgalikda Suyuq aloe ekstrakti juda xam samarali ta'sir etib, o'simliklardan olinadigan biogen moddalar almashinuvini rag'batlantiradi, xujayra metabolizmi, to'qimalar trofikasi va regeneratsiyasini yaxshilaydi, shuningdek organizmning nospesifik rezistentligini oshirish maqsadida buyuriladi.

Aloening immunitetni rag'batlantiruvchi ta'siri uning tarkibida polisaxaridlar (aloemannan, asemannan) va glikoproteidlarning mavjudligi bilan bog'liq. Aloening neytral polisaxaridlari ba'zi mikroorganizmlarga nisbatan mikroblarga qarshi faollikka ega. Aloening glikoproteidlari bradikinin metabolizmida ishtirok etadi, xujayra proliferatsiyasiga yordam beradi. Aloe tarkibidagi polisaxaridlар rux, selen, mis kabi mikroelementlar bilan birga immunitetni rag'batlantiruvchi xususiyatiga ega.

## Foydalanilgan adabiyotlar

Асқаров И.Р. Сирли табобат. – Т.: Фан ва технологиялар нашриёт-матбаа уйи. 2021. – Б. 1084.



Асқаров И.Р. Табобат қомуси. Т.: "Мумтоз сүз". – 2019. – Б. 1142.

Maxsumov M.N., Malikov M.M. Farmakologiya. - T. Ibn Sino. - 2006 y.

Bakkali F. et al. Biological effects of essential oils—a review //Food and chemical toxicology. – 2008. – T.

46. – №. 2. – С. 446-475. doi: 10.1016/j.fct.2007.09.106. DOI: <https://doi.org/10.1016/j.fct.2007.09.106>

S.S. Azizova “Farmakologiya”. Т.: Abu Ali ibn Sino nomidagi tibbiyot nashriyoti, 2006-yil.[ 200, 210, 288b]

M.N. Maxsumov, M.M. Malikov Farmakologiya. T. Ibn Sino nash. 2006 y.[230,256,366,367]

Адо А. Д. Общая аллергология: (Руководство для врачей). — 2-е изд., перераб. и доп. — М.: Медицина, 1978. — 464, [4] с. — 22 000 экз.

Адо А. Д. (ред.). Частная аллергология. — М.: Медицина, 1976. — 512 с. — 15 000 экз.

Клиническая иммунология / Под ред. Л. А. ГорячкоНой и К. П. Кашкина. Москва, «МиклоШ», 2009, ISBN 978-5-91746-002-4